

DORIVOR GULHAYRINING TUZILISHI VA XUSUSIYATLARI.

XO‘SHBOQOVA MARJONA MINGALI QIZI

Chirchiq davlat pedagogika Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo‘nalishi
21.2 guruh talabasi .

Elektron pochta mingaliabdurasulov58@gmail.com


Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar
fakulteti Biologiya kafedrası

p.f.f.d(PhD) Raxmatullayeva Anor Qayrullayevna.

Elektron pochta: a.raxmatillayeva@cspi.uz

O‘.Pratov, Shamsullayeva, E.Sullaymonov adabiyotlarida gulxayri(*Althaea*) gulhayridoshlarga mansub bir yillik va ko‘p yillik o‘tlar turkumiga kirishi, Yevropa va Osiyoning o‘rta mintaqalarida 12 ta turi o‘sashi, O‘zbekistonda gulhayrining 7 ta yovvoyi turi borligi haqida ma‘lumotlar bergan. Gulhayridoshlar to‘qaylarda, sug‘oriladigan maydonlarda va boshqa yerlarda uchraydi. Bu o‘simlik gulharidoshlar (*Malvaceae*) oilasiga mansub. Bu kabi dorivor gulhayri quyoshli o‘lkamizning tuprog‘ida unib o‘sayotgan turli dorivor o‘simliklar tabiatimiz boyligi sanaladi.[1]

Gulhayri - gulxayridoshlar *Malvaceae* oilasiga kiradi. Gulxayri ko‘p yillik, bo‘yi 150 - 160 sm bo‘ladigan o‘t o‘simlik. Ildiz poyasi kalta yo‘g‘on, ko‘p boshli. O‘q Ildizi 50 sm uzunlikda bo‘lib yuqori qismi yo‘g‘onlashgan bo‘ladi. Poyasi bitta yoki bir necha, tik o‘suvchi, silindrsimon, kam shoxli, pastki qismi yo‘g‘onlashgan. Bargi oddiy bo‘lib, bandi bilan poyada ketma ket joylashgan poyaning yuqori qismidagilari butun, tuxumsimon, o‘rta va pastki qismida esa uch yoki bo‘lakli qo‘shimcha bargi mayda yingichka lansitniksimon yoki chiziqsimon.[2]



Barg

plastinkasi o'tkir uchli va tishsimon qirrali bo'ladi. Gulkosachasi ikki qavatli. Pastki gulkosachasi 8 – 12 bo'lakka ajralgan ustki kosachasi esa 5 bo'lakli. Kosacha barglari meva bilan qoladi. Toji bargi beshta bo'lib pushtirangda changchilari ko'psonli. Ular ipi bilan birlashib, naycha hosil qiladi. Mevasi yassi, yumaloq, quruq meva. Iyun oyidan sentabrgacha gullaydi, mevasi iyul oyidan boshlab yetila boshlaydi. Geografik tarqalishi ariq ko'l bo'ylarida, o'tloq, to'qay, butalar orasida va boshqa nam yerlarda o'sadi. Moldava, Ukraina, Belarus, Rossiyaning Yevro qismning o'rmon - cho'l zonasida va Qirim, Kavkaz G'arbiy Sibr, Qozog'iston va O'rta Osiyoda uchraydi. Ukrainada o'stiriladi.[2]

Ishlatilishi. Gulxayri o'simligining tarkibida juda ko'p foydali moddalar bor. Chunonchi gulxayrining ildizida 35 % gacha shilliq moddalar, 37 % gacha kraxmal, 16 % ga yaqin qand, asparagin, betain, pektin, yog', 4,9 % atrofida mineral tuzlar mavjud.[5] O'simlikning barg hamda gullarida 0,02 % ga yaqin qattiq efir moyi, karotin, vitamin C, ildizlardagiga qaraganda ikki marta kam shilliq moddalar bor. Gulxayri qadim zamonlardan beri shifobaxsh o'simlik sifatida ishlatilib kelinadi. Gulxayri gul tojbarglaridan teri, shoyi va jun matolarni bo'yashda foydalaniladi.[3] Chunki gulxayri gulbarglari o'zida qizil, zangori hamda binafsharang bera oladigan malvidin pigmentini saqlaysi. Gulxayri ildizidan

kleyster tayyorlash, o'simlikning poya va shoxchalaridan a'lo sifatli qog'oz hamda arqonlar tayyorlash mumkin. Gulxayri gullari bolarilar uchun yaxshi oziq hisoblanadi.[4] Dorivor gulxayrining ildizini odatda kuzda yoki erta bahorda kavlab olinib, dag'al ildizpoya va mayda ildizchalardan ajratiladi - da, zudlik bilan suv oqimida yuvib olinadi (ildiz shilliqlanmasligi uchun). Shundan so'ng ochiq havoda quritiladi. Uy sharoitida gulxayri ildizidan quyidagicha damlama tayyorlash mumkin, birorta idishga 2 stakan miqdorda qaynatib sovutilgan suv quyiladi va uning ustiga 4 choy qoshiq maydalangan ildizdan solib, 8 soat davomida qo'yib qo'yiladi. So'ngra suzib olib, sharbatiga kuniga 3-4 mahal yarim stakan miqdorda ichiladi.[4]

Hulosa sifatida ayitish mumkin – ki, “Gulxayri” qadim zamonlardan beri shifobaxsh o'simlik sifatida ishlatilib kelinadi. Abu Ali Ibn Sino gulxayri ildizidan, bargidan va urug'laridan tayyorlangan damlama bilan yo'tal, qon tupurish, zotiljam va buyrak kasalliklarini davolagan.[6] Buyuk tabib gulxayri ildizi asosida tayyorlangan dori-darmonlarni ko'krakni yumshatuvchi, balg'am ko'chiruvchi omil sifatida tavsiya etgan.

Foydalanuvchi Adabiyotlar

1. O'.Pratov, Shamsullayeva, E. Sullaymonov “Botanika” Toshkent 2010
2. G. S . Tursunboyeva , G.M . Duschanova, S. J .Sadinov“Botanika” Toshkent - 2020
3. O'z Me. Birinchi jild. Toshkent - 2000
4. Botanika 6-sinf 2017
5. Raxmatullaeva, A. K. (2021). BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA EKSKURSIYA METODIKASINING AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1140-1144.
6. Raxmatullayeva Anor Qayrullayevna, R. A. (2022, October). GEN KASALLIKLARI. In *Conference Zone* (pp. 52-57).